



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOG‘ISTON ZARGARLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gafurova Kamola Mirsalievna,

*O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi
davlat muzeyi Muzey buyumlari va fond to‘plamlarini
qayd etish va ro‘yxatga olish bo‘limi mudiri*

Abrarova Gulchexra Erkinovna,

*O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi
davlat muzeyi Muzey buyumlari va fond to‘plamlarini
qayd etish va ro‘yxatga olish bo‘limi katta ilmiy xodimi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606529>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq amaliy-bezak san’atida zargarlik san’atining o‘rni va rivojlanish xususiyatlari, an’anaviy zargarlik san’atining shakllanishi, shuningdek XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qoraqalpog‘istonda faoliyat yuritgan zargar ustalar haqida ma’lumotlar berilgan. Qoraqalpoq ayollariga xos an’anaviy taqinchoqlar, ularning badiiy xususiyatlari, tayyorlanish usullari, qo‘llanilgan materiallar hamda bezak elementlarining ramziy ma’nolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq zargarlik san’ati, an’anaviy taqinchoqlar, ayollar zeb-ziynat buyumlari, kumush buyumlar, badiiy bezak, ramziy ma’no, zargarlik texnikasi.

Abstract. The article examines the role and development of jewelry art within the system of decorative and applied arts of the Karakalpak people, as well as the formation of traditional jewelry craftsmanship. It also provides information about jewelers who worked in Karakalpakstan in the late 19th and early 20th centuries. The study analyzes traditional women’s ornaments, their artistic features, production techniques, materials used, and the symbolic meanings of decorative elements.

Keywords: Karakalpak jewelry art, traditional ornaments, women’s decorative items, silver items, artistic ornamentation, symbolic meaning, jewelry techniques.

Qoraqalpoq xalq amaliy-bezak san’ati turlari ichida zeb-ziynat san’ati bo‘lmish zargarlik san’ati alohida ahamiyat kasb etadi. Zargarlik san’ati milliy-badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishidagi oliy maqsadlarini o‘rganishga yordam beradi. Ziynat buyumlari hunar egalarning mahoratidan, ma’lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlaridan, ma’dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qilib, zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san’atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namoyon etadilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida an’anaviy zargarlik san’ati taraqqiyoti Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo‘shni xalqlar tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqlarning o‘zaro tinch yo‘l bilan bir-biriga yaqinlashuvi madaniyatlarini boyitgan, bir-birlari uchun yaqin, qadrli bo‘lgan narsalarni almashganlar, bora-bora bu har bir xalqning mahalliy san’atiga singib ketib, o‘ziga xoslik va mustahkam an’ana kasb etgan.



XIX asrda zargarlik san'ati Qoraqalpog'istonda Qo'ng'irotda, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy va Xalqobod shaharlarida namoyon bo'lgan. Qoraqalpoqlar san'ati Surxondaryo, Farg'ona vodiysidagi yarim ko'chmanchi qabilalar va turkman qabilalari san'ati bilan genetik jihatdan bog'liq bo'lgan qadimiy an'alarini aks ettiradi. Qoraqalpog'iston hududida bu davrda 80 ga yaqin zargarlar o'zlarining ijodiy faoliyatlarini olib borgan bo'lib, bular: Qo'ng'irotda –Xojiniyoz, Xo'jaylida-Aybergan, Sh.Azimbekov, To'rtko'lida –I.Xamraev, Sho'rtanboy atrofida –Xudaybergen Qo'razov, Chimboy yaqinidagi Terbenbes hududida-Arzimbet zerger kabilar ijod qilgan [3,b-23].

XIX asr va XX asr boshlarida qoraqalpoqlar orasida zargarlik san'ati yuqori darajada rivojlangan. Asosan ayollar taqinchoqlari, shuningdek, kumushdan tayyorlangan egar va ot jabduqlari bezaklari, belbog'lar hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarilgan. Oltin va kumush buyumlar tayyorlash bilan shug'ullangan ustalar Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarida bo'lgani kabi “zerger” deb atalgan. Manbalarga ko'ra-zargarlarning ma'lumot berishicha, o'tmishda qoraqalpoq jamiyatida mazkur hunar bilan faqat erkaklar shug'ullangan. Odatda zargarga bitta yoki bir nechta taqinchoq buyurtma qilish mumkin bo'lib, asosan ular o'z uyida ishlagan, lekin ba'zida ularni buyurtmachi o'z uyida ishlashga taklif qilgan. Zargarlar tomonidan tayyorlangan bezak taqinchoqlar o'rtasidagi farqlar sezilarli darajada bo'lmagan; odatda turli ustalar muayyan bir turdagi bezakka ixtisoslashmasdan, shakl va kompozitsiya jihatidan o'xshash bo'lgan taqinchoqlarni ishlab chiqarganlar. [1,b-159-160].

Zargarlik taqinchoqlari shakli, bajarilish texnikasi, vazifasiga ko'ra turlichadir. Ularda xotin qizlarning ijtimoiy ahvoli va yoshi bo'yicha tabaqalanishiga qat'iy amal qilingan. Taqinchoqlar qiz bolaning bolalikdan balog'at sari ulg'ayishida murakkablashib borishi, keksayganda soddalahuvi kuzatiladi. Qizlarning taqinchoqlari yomon ko'zlardan asrovchi tumor va munchoqlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bezaklar to'y liboslarini kiygan kelinning peshona va chakkasini to'la qoplab, ularni ko'z, suq va afsungarlardan himoya qilgan. Faqat yonoqlar ochiq qoldirilib, ularga qo'shimcha burun sirg'asi, mayda shokilalardan iborat “halqop sirg'a” kabilar taqilgan. Ular ham kelinni yuzini to'sib turgan. Belga taqiladigan “saukele” belbog'i uzunasiga (tovus dumiga o'xshab) pastga osilib turgan. Unda zargarlik buyumlari ishlatilmaydi. Bu kishi ortidan uzoq qarashning zarari haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq.

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchiligi tarixi davlat muzeyining zargarlik kolleksiyasi boy va rang-barangdir. Hozirda muzeyning fond zaxiraxonalari va ekspozitsiya zallarida qoraqalpoq zargarlarining XIX-XX asrlariga oid an'anaviy zargarlik buyumlarining asl namunalari mavjud bo'lib, ularni quyidagi tartibda tasniflash mumkin: burun, quloq bezak taqinchoqlari-arabek, “halqa”-zirak, “halqop sirg'a” lar; bo'yin va ko'krak uchun taqinchoq buyumlari-xaykel, shartuyme, tuyme, ongirmonshak; yelka uchun bezaklar, qo'l va bilak uchun zargarlik buyumlari-uzuk va bilaguzuklar shular jumlasidandir.



Xaykel — kumushdan yasalgan, hajman yirik, shaklan murakkab ko'krak taqinchog'i bo'lib, u odatda oval shakldagi rangli toshlar-marjon, aqiq kabilar bilan bezatilgan. Taqinchoqning sirtiga mayda kumush zanjirchalar, rombsimon osilmalar va qo'ng'iroqchalar ilingan. 1980-yillardagi tadqiqotlarga ko'ra, xaykelni qizlar turmushga chiqqunga qadar taqqanlar: “xaykel taqqan qiz turmushga chiqqach, qizil kiymeshak (ya'ni kelinlik bosh kiyimi) kiygach, xaykelni taqmagan”. Biroq ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yosh ayollar uni bir-ikki farzandli bo'lgunga qadar ham taqishlari mumkinligini ta'kidlaydilar.

“Xaykel” - so'zi eron tillariga mansub bo'lib, “haykal”, “but”, “yodgorlik” ma'nolarini anglatadi. Markaziy Osiyo hududida but yoki muqaddas timsollarni muhofaza vositasi sifatida taqish an'anasi etnografik manbalarda qayd etilgan. Ehtimol, xaykel tarkibidagi aqiq toshi ham ramziy ma'no kasb etgan. Ma'lumki, feruza, marjon va aqiq toshlari xalq qarashlarida tumor sifatida e'tirof etilgan. Markaziy Osiyodagi ayrim xalqlarda marjon taqish ayolga serfarzandlik ato etadi, degan e'tiqod ham mavjud bo'lgan. [1, b-98].

Qoraqalpoq zargarlik san'atida yomon nazardan asrovchi ramzlar xoch ko'rinishidagi **“shar tuyme”** (Quyosh va olov qudrati ramzida) hamda “anshiq” – yonda osilib yuriladigan atropomorf tasvir ko'rinishida talqin etiladi.

Ongirmonshak - yarim shar shaklidagi ko'krak bezagi. Uning usti masjid, madrasa, mozorlarning gumbaziga o'xshaydi. Uning pastki qismida romb va qo'ng'iroqchalar bilan bezatilgan ko'plab zanjirli shokilalar osilib turadi. Libos kashtasining pastki qismiga o'ngirmonshak mahkamlanadi [1, b-98].

Qoraqalpoq ayollarining qo'l taqinchoqlari turmushga chiqqan ayollar bezak majmuasida keng o'rin tutgan. Ular turli yosh va ijtimoiy qatlamga mansub ayollar tomonidan doimiy ravishda taqilgan.

Qoraqalpoq bilaguzuklari (bilezik) shakli va nomlanishiga ko'ra farqlangan: “quyma bilezik” (quyma usulda yasalgan), “jalpaq bilezik” (yassi shaklli), “qola bilezik” (bronzadan), “hasil tasli bilezik” (aqiq qo'yilgan), “jez bilezik” (latundan). Ular odatda ochiq shakldagi, egilgan yoki quyma metall plastinalardan iborat bo'lgan. Latundan ishlangan “jez bilezik”, asosan, yoshi katta ayollarga sovg'a qilingan. Ular uni taqmay, kelin-kuyovning nikoh to'yi ramzi sifatida sandiqlarida asrashgan. Toshli, asosan, aqiq bilan bezatilgan bilaguzuklar qizlar va yosh ayollar tomonidan taqilgan, quyma turlari esa ko'proq yoshi katta ayollarga xos bo'lgan. Ayniqsa, relyefli naqshlar bilan bezatilgan og'ir quyma bileziklar va ikki-uch qator aqiq hamda “ilon izi” naqshi tushirilgan hasil tasli bileziklar alohida ajralib turadi. Bunday bilaguzuklarning uchlari yirtqich hayvon panjasi yoki tishiga o'xshatib ishlangan.

Uzuk, burun buloqini birinchi marta kelinlar to'y kuni taqishgan. Bu er-xotinlik va arxaik tushunchalarga ko'ra, insonni boshqa holatga o'tganligi ramzi hisoblangan. Marosim taqinchoqlari kumushdan yasalgan bo'lib, tilla, marjon, feruza toshlar bilan ham bezatilgan. Taqinchoqlar dastlab marosim ramzlari sanalgan bo'lsa, keyinchalik ular boy-badavlatlilikni ko'rsatuvchi belgiga aylangan. [2., b-340-341].



Qoraqalpoq usta-zargarlarining texnik usullari qozoq va o‘zbeklarniki kabi turlicha bo‘lgan. Zargarlar bolg‘alash va quyishdan tashqari, o‘ymakorlik, zarb qilish, qoliplash, o‘yish, zarhallash, kumushlash va boshqa usullarni qo‘llaganlar. XIX-XX asr boshlarida qoraqalpoq zargarlari ayollar taqinchoqlarining barcha turlarini yasaganlar. [1., b-164].

Qoraqalpoq zargarlarining ishlarida kumush ishlatilgan, oltin esa faqat zarhal va alohida naqsh chiziqlarini chizish uchun ishlatilgan. Bundan tashqari, bezaklar uchun aqiq, marjon va ba‘zan feruza toshlar ishlatilgan. Ushbu bezaklarning semantikasi har doim hayotning paydo bo‘lishi va saqlanishi, naslni davom ettirish g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan. [4, b-235].

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, zargarlik san‘ati qoraqalpoqlar orasida hunarmandchilikning an‘anaviy turlaridan biri bo‘lgan. U o‘ziga xos texnikalar tizimini, zargarlik taqinchoqlarining xilma-xilligini, bezak motivlarining arxaik tushunchalarini ifodalaydi. Zargarlik buyumlari har doim aholi orasida keng tarqalgan. An‘anaviy ayol libosining ajralmas qismi bo‘lib, ular diniy marosimlarning atributlari sifatida ham xizmat qilgan. Bu omillar ularni ishlab chiqarishning salobatlilikini belgilaydi.

Ushbu san‘at sohasi shubhasiz san‘at tarixida, madaniy va etnografik qiziqish uyg‘otadi. Uning tadqiqotlari yangi ma‘lumotlar to‘plash va qoraqalpoqlarning etnik tarixiga oid munozarali masalalarni oydinlashtirishga va turkiy tilli xalqlarning diniy-madaniy marosimlari kontekstida turli muammolarni o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Этнография каракалпаков XIX-начало XX века”. (Материалы и исследования) Академия наук Узбекской ССР Каракалпакский филиал. Институт истории языка и литературы имени Давкараева. Издательство “ФАН”. Узбекской ССР. 1980 г.
2. “O‘zbekiston hunarmandchilik va amaliy san‘ati”. II-tom. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2017-yil.
3. B.Dadamuxamedov. “O‘zbekiston zargarlik san‘ati”. Monografiya. “Zebo Prints” nashriyoti. Toshkent. 2025-yil.
4. Ювелирная коллекция государственного музея искусств республики Каракалпакстан имени И.В.Савицкого. Д.А.Кудайбергенова. Historical Ethnology. 2023. 5.06.2023. Vol. 8. No. 2